




O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
PREZIDENTI HUZURIDAGI  
STATISTIKA AGENTLIGI



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA  
O'RTA-MAXSUS, PROFESSIONAL TA'LIM  
FAOLIYATINING ASOSIY STATISTIK  
KO'RSATKICHLARI  
(2022/2023- o'quv yili boshiga)**





## O'zbekiston Respublikasida o'rta maxsus professional ta'lim tizimi

Professional ta'lim tizimini ilg'or xorijiy tajribalar asosida takomillashtirish, boshlang'ich, o'rta va o'rta maxsus professional ta'lim bosqichlarini joriy qilish orqali mehnat bozori uchun malakali va raqobatbardosh kadrlar tayyorlash hamda mazkur jarayonga ish beruvchilarni keng jalb qilish maqsadida, 2020/2021- o'quv yilidan boshlab, O'zbekiston Respublikasida Ta'limning xalqaro standart tasniflagichi (TXST) darajalari bilan uyg'unlashgan yangi boshlang'ich, o'rta va o'rta maxsus professional ta'lim tizimi hamda tabaqalashtirilgan ta'lim dasturlari joriy etiladigan ta'lim muassasalari tarmog'i tashkil etildi.

**Ma'lumot uchun:** Milliy ta'lim tizimlarining tuzilishi va ta'lim dasturlari mazmuni xilma-xilligi tufayli turli mamlakatlarning erishgan natijalarini taqqoslash, solishtirish va ularning milliy va xalqaro miqyosdagi maqsadlar sari olg'a siljishini kuzatish qiyin bo'lishi mumkin. Global miqyosda ta'lim tizimlarining jihatlari va jarayonlarini tushunish va to'g'ri talqin qilish uchun ma'lumotlarning solishtirilishini ta'minlash ayniqsa muhimdir. Bunga xalqaro miqyosda taqqoslanadigan statistik ma'lumotlarni tasniflash va taqdim etish uchun kontseptual hujjat – Ta'limning xalqaro standart tasniflagichidan (TXST) foydalanish orqali erishish mumkin.

TXST-2011 tasnifi 2011- yil noyabr oyida YUNESKO Bosh konferensiyasining 36-sessiyasida qabul qilingan. Dastlab, YUNESKO tomonidan 1970- yillarda ishlab chiqilgan va birinchi marta 1997- yilda qayta ko'rib chiqilgan TXST tasnifi milliy va xalqaro miqyosda ta'lim statistikasini yig'ish va taqdim etish uchun vosita bo'lib xizmat qiladi. Ushbu hujjat butun dunyo bo'ylab ta'lim tizimidagi yangiliklarni yanada aniqroq aks ettirish uchun vaqti-vaqti bilan yangilanib turiladi.





## O'zbekiston Respublikasida o'рта maxsus, professional ta'limi tizimi

**O'рта maxsus ta'lim akademik litseylarda** to'qqiz yillik tayanch o'рта ta'lim asosida ikki yil mobaynida amalga oshiriladi va ta'lim oluvchilarning intellektual qobiliyatlari jadal rivojlanishini, shuningdek chuqur, tabaqalashtirilgan, kasb-hunarga va shaxsga yo'naltirilgan ta'lim olishini ta'minlaydi.

### Professional ta'lim

**Boshlang'ich professional ta'lim**



**O'рта professional ta'lim**



**O'рта maxsus professional ta'lim**



**Boshlang'ich professional ta'lim kasb-hunar maktablarida** IX sinf bitiruvchilari negizida bepul asosda kunduzgi ta'lim shakli bo'yicha umumta'lim fanlarining va mutaxassislik fanlarining ikki yillik integratsiyalashgan dasturlari asosida amalga oshiriladi.

**O'рта professional ta'lim kollejlarda** davlat buyurtmasi yoki to'lov-shartnoma asosida kasblar hamda mutaxassisliklarning murakkabligidan kelib chiqqan holda, davomiyligi ikki yilgacha bo'lgan kunduzgi, kechki va sirtqi ta'lim shakllari bo'yicha umumiy o'рта, o'рта maxsus ta'lim hamda boshlang'ich professional ta'lim negizida amalga oshiriladi.

**O'рта maxsus professional ta'lim texnikumlarda** umumiy o'рта, o'рта maxsus, boshlang'ich professional va o'рта professional ta'lim negizida davlat buyurtmasi yoki to'lov-shartnoma asosida kasblar hamda mutaxassisliklarning murakkabligidan kelib chiqqan holda, davomiyligi kamida ikki yil bo'lgan kunduzgi, kechki va sirtqi ta'lim shakllari bo'yicha amalga oshiriladi.







## Akademik litseylar soni va ularning hududlar kesimida taqsimlanishi (o'quv yili boshiga, birlik)



**2022/2023- o'quv yili**


2022/2023- o'quv yilida 2018/2019- o'quv yiliga nisbatan akademik litseylar soni 38 taga, ya'ni 30,9 % ga kamaygan.

2022/2023- o'quv yili boshiga ularning eng yuqori ko'rsatkichi Toshkent shahrida (27 ta) qayd etilgan bo'lsa, boshqa viloyatlarga nisbatan eng past ko'rsatkich Sirdaryo viloyatida (2 ta) kuzatilgan

Akademik litseylar soni

2018/2019- o'quv yiliga nisbatan o'zgarishi

## Akademik litseylarda tahsil olayotgan o'quvchilarning soni (o'quv yili boshiga, ming kishi)




Akademik litseylarda tahsil olayotgan o'quvchilarning soni 2018/2019- o'quv yili boshiga nisbatan 39,4 ming kishiga, ya'ni 54,9 % ga kamaygan.






## Akademik litseylarda tahsil olayotgan o'quvchilarning hududlar kesimida taqsimlanishi (2022/2023- o'quv yili boshiga, ming kishi)



2022/2023- o'quv yili boshida akademik litseylarda tahsil olayotgan o'quvchilarning eng katta qismi Toshkent shahrida (9,8 ming kishi), eng kam qismi Sirdaryo viloyatida (0,8 ming kishi) qayd etilgan. 2018/2019- o'quv yiliga nisbatan eng yuqori salbiy o'sish surati Andijon (- 65,3 %) va Sirdaryo (- 65,2 %) viloyatlarida, eng pasti esa – Jizzax viloyati (-39,3 %) va Toshkent shahrida aks etgan (- 45,9 %).

## Akademik litseylarda tahsil olayotgan o'quvchilarning gender taqsimoti (2022/2023- o'quv yili boshiga, ming kishi)




2022/2023- o'quv yili boshiga akademik litseylarda tahsil olayotgan o'quvchilarning umumiy sonida o'g'il bolalar ulushi 60,2 % ni (19,5 ming kishi), qizlar ulushi 39,8 % ni (12,9 ming kishi) tashkil etdi.





## Akademik litseylarning o'qituvchilari tarkibi (o'quv yili boshiga, kishi)




2022/2023- o'quv yili

Toshkent sh.	929
Samarqand	318
Farg'ona	234
Qoraqalpog'iston Resp.	224
Namangan	219
Qashqadaryo	218
Buxoro	197
Andijon	172
Xorazm	157
Jizzax	155
Surxondaryo	132
Navoiy	120
Toshkent	111
Sirdaryo	66

2018-2022- yillarda akademik litseylarning o'qituvchilari soni yildan yilga kamayib kelgan. O'z o'rnida, 2022/2023- o'quv yili boshida ularning soni 2018/2019- o'quv yiliga nisbatan 2 486 kishiga, ya'ni 43,3 % ga kamaygan. Akademik litsey o'qituvchilarining eng ko'p qismi Toshkent shahrida (929 kishi), eng kami esa Sirdaryo viloyatida (66 kishi) qayd etilgan.

## Akademik litseylarning bitiruvchilari (ming kishi)



2022- yil uchun

Toshkent sh.	5,1
Samarqand	2,0
Qoraqalpog'iston Resp.	1,5
Qashqadaryo	1,2
Farg'ona	1,2
Andijon	1,1
Buxoro	1,1
Namangan	1,1
Xorazm	1,1
Jizzax	1,0
Surxondaryo	0,9
Navoiy	0,8
Toshkent	0,7
Sirdaryo	0,6

2022- yilda akademik litsey bitiruvchilari soni 2019- yilga nisbatan 12,2 ming kishiga, ya'ni 38,6 % ga kamaygan






## O'zbekiston respublikasida professional ta'lim

Professional ta'lim egallanadigan kasb va mutaxassislik bo'yicha boshlang'ich professional ta'lim, o'rta professional ta'lim, o'rta maxsus professional ta'lim darajalarini o'z ichiga oladi.



## Boshlang'ich, o'rta, o'rta maxsus professional ta'lim muassasalari soni (o'quv yili boshiga, birlik)



Kasb-hunar maktablari, kollejlar va texnikumlar sonining tahlili texnikumlar ko'payganligi, kasb-hunar maktablari hamda kollejlar esa kamayganligini kuzatish mumkin.

Masalan, 2022/2023- o'quv yili boshida kasb-hunar maktablari soni 2020/2021- o'quv yiliga nisbatan 2 taga, kollejlar 23 taga kamaygan, texnikumlar soni esa 20 taga








## Boshlang'ich, o'rta, o'rta maxsus professional ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan o'quvchilarning soni

(o'quv yili boshiga, ming kishi)




2020/2021- o'quv yilidan 2022/2023- o'quv yiligacha bo'lgan davrni tahlili kasb-hunar maktablari, kollejlar va texnikumlarda tahsil olayotgan o'quvchilar sonining o'sishini ko'rsatadi.

Shunday qilib, ushbu davrda ularning soni kasb-hunar maktablarida 2,3 barabarga, texnikumlarda 2,2 barabarga, kollejlarda esa 67,4 % ga oshgan.

## Boshlang'ich, o'rta, o'rta maxsus professional ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan o'quvchilar sonining gender taqsimoti

(2022/2023- o'quv yili boshiga, ming kishi)



2022/2023- o'quv yili boshida boshlang'ich, o'rta, o'rta maxsus professional ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan barcha o'quvchilar sonida qizlarning ulushi (53,3 %) o'g'il bolalarning ulushiga (46,7 %) nisbatan ko'p bo'lgan.

Agarda professional ta'limning har bir darajasi alohida kuzatilsa, kasb-hunar maktablarida tahsil olayotgan o'g'il bolalar (73,4 %) ulushi qizlar (26,6 %) ulushiga nisbatan ko'pligini ko'rish mumkin. Kollej va texnikumlarda tahsil olayotgan o'quvchilar orasida qizlar o'g'il


bolalarga qaraganda ko'proq. Shunday qilib, kollejlarda qizlar ulushi 87,4 % ni, o'g'il bolalar ulushi 12,6 % ni, texnikumlarda esa qizlar 53,3 % ni, o'g'il bolalar 46,7 % ni tashkil qilgan.








## Boshlang'ich, o'rta, o'rta maxsus professional ta'lim muassasalarining o'qituvchilari tarkibi (o'quv yili boshiga, kishi)



Boshlang'ich, o'rta, o'rta maxsus professional ta'lim muassasalarida so'nggi uch yil davomida o'qituvchilar soni ko'payganini qayd etish mumkin. Shunday qilib, 2022/2023- o'quv yili boshida ularning soni 2020/2022- o'quv yiliga nisbatan 45,5 % ga oshgan.


## Boshlang'ich, o'rta, o'rta maxsus professional ta'lim muassasalarining bitiruvchilari (2022- yil uchun, ming kishi)






**Ma'lumot uchun:** Kasb-hunar maktablari kadrlar tayyorlash umumta'lim muassasalarining 9-sinf bitiruvchilari hisobidan shakllantirilgan guruhlarda, 2 yillik umumta'lim va mutaxassislik fanlarining integratsiyalashgan dasturlari asosida, kunduzgi ta'lim shaklida amalga oshiriladi.

## Kasb-hunar maktablari soni, birlikda



## Kasb-hunar maktablarini hududlar bo'yicha taqsimlanishi, birlikda\* (2022/2023- o'quv yili boshiga)



2022/2023- o'quv yili boshida O'zbekiston Respublikasida **337** ta kasb-hunar maktablari mavjud bo'lib, ularning eng ko'p soni Samarqand viloyatida (**37** ta), eng kam – Toshkent shahrida (**6** ta) qayd etilgan.


\*shu jumladan madaniyat va san'at maktablarining qo'shgan holda





## Kasb-hunar maktablarida tahsil olayotgan o'quvchilarning taqsimlanishi, ming kishi (o'quv yili boshiga)

**Hududlar bo'yicha**  
 2022/2023- o'quv yili boshiga



2022/2023- o'quv yili boshida kasb-hunar ta'limi muassasalarida **184,3** ming o'quvchi tahsil olmoqda. Hududlar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Farg'ona viloyatida – **26,1** ming nafar, eng kami Toshkent shahrida – **4,8** ming nafar.

**Qiz bolalar**  
**26,6 %**



**O'g'il bolalar**  
**73,4 %**




Agar kasb-hunar ta'limi muassasalaridagi barcha o'quvchilar **100** foiz deb olinsa, ularning **26,6** foizini qizlar, **73,4** foizini o'g'il bolalar tashkil etadi.






**Kasb-hunar maktablarida faoliyat yuritayotgan  
 o'qituvchilarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi**  
 (o'quv yili boshida, o'rindoshlarsiz, kishi)



**O'zbekiston Respublikasi**



2022- yilda kasb-hunar maktablarida dars beradigan o'qituvchilar soni 2021- yilga nisbatan **9931** nafarga yoki **1,2** barobarga ko'payib, **11771** nafarni tashkil etdi.

Hududlar kesimida eng ko'p o'qituvchilar Qashqadaryo viloyatida – **1635** nafar, eng kami – Toshkent shahrida – **259** kishi qayd etilgan.









**Kollejlar soni, birlikda**  
 (o'quv yili boshiga)

**Hududlar bo'yicha**

**O'zbekiston Respublikasi**




2022/2023- o'quv yili boshida O'zbekiston Respublikasida **183** ta kollej mavjud bo'lib, hududlar bo'yicha eng ko'pi Farg'ona viloyatida (21 birlik), eng kami Navoiy viloyatida (4 birlik) qayd etilgan.







## Kollej o'quvchilarining taqsimlanishi, ming kishi (o'quv yili boshiga)

Hududlar bo'yicha



O'zbekiston Respublikasi




2022/2023- o'quv yili boshida O'zbekiston Respublikasidagi **183** ta kollejda **95,1** ming nafar o'quvchi tahsil olmoqda, eng yuqori ko'rsatkich Farg'ona viloyatida (**14,2** ming o'quvchi), eng kam ko'rsatkich Navoiy viloyatida (**1,8** ming kishi) qayd etilgan.






## Kollej o'qituvchilarining taqsimlanishi (o'quv yili boshiga)

### Hududlar bo'yicha



■ 2021/2022 ■ 2022/2023

### O'zbekiston Respublikasi




2022/2023- o'quv yili boshida kollejlarda **3955** nafar (o'rindoshlarsiz) o'qituvchilar faoliyat ko'rsatmoqda, bu ko'rsatkich 2021- yilga nisbatan (2021- yilda – **3873** nafar) 1,0 foizga oshgan.






**Texnikumlarni hududlar  
 bo'yicha taqsimlanishi, birlikda  
 (o'quv yili boshiga)**



 2021/2022  
 2022/2023

**O'zbekiston Respublikasi**



O'zbekiston Respublikasida 2022/2023-  
 o'quv yili boshida texnikumlar soni **215** tani  
 tashkil etdi, 2021/2022- o'quv yili boshiga  
 nisbatan **28** taga ko'paydi.








## Texnikum talabalarining taqsimlanishi, ming kishi (o'quv yili boshiga)

### Hududlar bo'yicha



### O'zbekiston Respublikasi




2022/2023- o'quv yili boshida O'zbekiston Respublikasidagi texnikumlarda **119,0** ming talaba tahsil olmoqda, eng yuqori ko'rsatkich Samarqand viloyatida (**19,3 ming**), eng past ko'rsatkich Sirdaryo viloyatida (**2,2 ming**) qayd etilgan.







## Texnikum o'qituvchilari soni, kishi (o'quv yili boshida)

### Hududlar bo'yicha



### O'zbekiston Respublikasi



2022/2023- o'quv yili boshida texnikumlarda **4561** nafar o'qituvchi faoliyat yuritgan, bu o'tgan o'quv yiliga (4894 nafar) nisbatan **1,1** barobar kamaygan. Hududlar kesimida eng ko'p o'qituvchilar Samarqand viloyatida – **699** nafar, eng kami – Sirdaryo viloyatida – **95** nafar qayd etildi.





## Statistik ko'rsatkichlarga izoh

**O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari tizimi** – boshlang'ich, o'rta va o'rta maxsus professional, kasb-hunar ta'limi maqsadi va vazifalarini amalga oshirish uchun zarur tashkiliy, o'quv-metodik, moddiy-texnik va psixologik-pedagogik shart-sharoitlarni ta'minlaydigan akademik litseylar, kasb-hunar maktablari, kollejlari, texnikumlardan iborat bo'ladi.

**Akademik litsey** – uzluksiz ta'lim tizimining asosiy bo'g'ini hisoblanadi va O'zbekiston Respublikasining barcha fuqarolariga davlat umumta'limi andozalari doirasida bepul umumiy ta'lim olishning kafolatlangan huquqi va imkoniyatini beradi.

**Professional ta'lim** – ta'lim oluvchilarda ma'lum bir mutaxassislik va kasblar bo'yicha kasbiy kompetensiyalarni shakllantiradigan va rivojlantiradigan uzluksiz ta'lim tizimi.

**Kasb-hunar maktabi** – Xalqaro tasniflagichning 3-darajasiga mos keluvchi ta'lim dasturlari asosida 9-sinf bitiruvchilarini ijtimoiy qo'llab-quvvatlashga qaratilgan boshlang'ich professional ta'lim bosqichida kadrlar tayyorlaydigan ta'lim muassasasi hisoblanadi.

**Kollejlari** – Xalqaro tasniflagichning 4-darajasiga mos keluvchi ta'lim dasturlari asosida o'rta professional ta'lim bosqichida kadrlar tayyorlaydigan ta'lim muassasalari hisoblanadi.

**Texnikumlar** – Xalqaro tasniflagichning 5-darajasiga mos keluvchi ta'lim dasturlari asosida oliy ta'lim tizimi bilan integratsiyalashgan o'rta maxsus professional ta'lim bosqichida kadrlar tayyorlaydigan, oliy ta'lim tashkilotlari huzurida faoliyat yuritadigan ta'lim muassasalari hisoblanadi.





**Press-relizni tayyorlash uchun mas'ul:**  
**Ijtimoiy soha va barqaror rivojlanish**  
**statistikasi boshqarmasi**



**O'zbekiston Respublikasi**  
**Prezidenti huzuridagi**  
**Statistika agentligi**



**e-mail:sdg@stat.uz**



**Manzil: 100170, Toshkent sh.,**  
**Mustaqillik shoh ko'chasi, 63**



**www.stat.uz**



**Tel.: +99871 202-80-70**



**facebook.com/uzstataxborot**

